

## FARG‘ONA VODIYSI – ANTIK DAVRDA

**Turdiboyeva Muxlisa**

Namangan davlat universiteti  
Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Yurtimiz boy va betakror tarixga ega. Bu tarix haqida qancha asarlar yaratsak ham arziydi. Biroq aslini olganda gap qancha asar yaratishda emas, balki qanday asar yaratishdadir. Xususan Farg‘ona vodiysi Mamlakatimizning jannat- makon o‘lkasi bo‘lib, uning tarixi, o‘tmish zar varaqlari, haqida qiziqish bizning ushbu maqolani yaratishga turtki berdi. Jumladan Farg‘ona vodiysi antik davri shaharlari, yodgorliklari, aholisi va mehnat faoliyati shu bilan birga ijtimoiy- madaniy hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlar hikoya qilib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Polibiy, Yaksart, parg‘ona, falg‘ar, parkana, parg‘ana, prag‘ana, Davan, dayyuan, Yuan, Axi, Chust madaniyati, Eylaton madaniyati, Dalvarzin, Mug‘tepa, Munchoqtepa, protoshahar, Buvanamozor yodgorligi.

Yurtimiz rang-barang tarixga ega. Bu tarix xalqimiz uchun qanchalik qadrlil va muqaddasdir. Chunki bu tarixda bizning o‘tmishimiz teran yoritilgan. Bu o‘tmishtarixni o‘rganish, ajdodlarimiz qilgan ishlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish bizning asosiy vazifamizdir. Miloddan avvalgi II asrda yashab o‘tgan qadimgi yunon tarixchisi Polibiyning aytishlaricha “ O‘tmishni bilish boshqa har qanday fanlardan ko‘ra kishilarga tezroq foyda keltirishi mumkin, tarixdan o‘rganib olingan saboqlar esa ma’rifatga olib boradigan eng to‘g‘ri yo‘ldir” Shu o‘rinda O‘rta Osiyo jahon sivilizatsiyasi, insoniyat madaniyati tarixining maskanlaridan biridir. Bu o‘lka xususan vodiylar va voha hududlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Bu hududlarni o‘rganish, ayniqsa O‘lkamizning yozilmay qolgan qadimiy tarixini yaratishda asrimizning 30- yillaridan boshlab vodiylarda o‘tkazib kelinayotgan arxeologik tadqiqotlar yorqin natijalarini bugungi kunda ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston xalqlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining qadimiy o‘choqlaridan biridir. Ushbu hudud turli davrlarga doir arxeologik yodgorliklarga boy bo‘lib, qadimiy madaniyat manzilgohlaridan biridir. So‘nggi yillarda topilgan tosh davri manzilgohlari va qoya toshlarga solingan suratlar vodiylar odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak bermoqda. Demak vodiylarning o‘ziga keladigan bo‘lsak, jumladan: Hozirda amalda qo‘llanilayotgan Farg‘ona so‘zining asl ma’nosi xanuzgacha aniqlanmagan. Ammo uning etimologiyasi haqida izohlar, mulohaza va

taxminlar bor. Antik davr yunon olimlarining asarlarida Farg‘ona haqida hech qanday ma‘lumotlar uchramaydi. Sabab ular bu o‘lkada bo‘lmaganlar. Biroq, Aleksandr Makedonskiy boshliq yunon bosqinchilari, garchi hozirgi Xo‘jand-leninobod atroflarida jang qilgan bo‘lsalarda, Farg‘onaning ichki tomonlari va Toshkent viloyati tomonlariga o‘ta olmaganlar. Shu boisdan bo‘lsa kerakki, qadimgi yunon tilidagi kitoblarida qadimiy Farg‘ona o‘z ta‘rifini topmagan. Ammo ular “Yaksart orqasida” (Sirdaryoning qadimiy nomi) allaqanday o‘troq xalqlar borligi va ularda otlar borligini qayd etib o‘tadilar.

Ma‘lum bir manbalarga asoslanib, tadqiqotchilar Farg‘ona so‘zini shunday izohladilar: parikana –qabila nomi, parkana –kichik viloyat, parixona –parilar yoki go‘zallar yurti, parand –shoyi-ipak yoki ipakxona, pargona –“tog‘ oralig‘idagi vodiy” (forscha), “xar xona” yoki “az har xona” –har xonadon, falg‘ar –“tog‘ etagi” va nihoyat parkana –qadimiy tojik tilida “berk vodiy” degan ma‘noni bildirgan.

Bu so‘zlar talaffuzda Farg‘ona bo‘lib ketgan va Farg‘ona so‘zi ana shu so‘zlardan kelib chiqqan, deya taxmin qilamiz. Boshqa bir manbada esa Farg‘ona so‘zining kelib chiqishi to‘riida turli fikrlar mavjud. Olimlar Farg‘ona so‘zining bundan XIII asr ilgari sug‘d yozuvlarida “Parg‘ana”, “Prag‘ana” shakllarida yozilganligi hamda xind sankrit tilida “kichik viloyat”; fors tillarida “tog‘ oralig‘idagi vodiy”, “atrofi berk soylik” degan ma‘nolarga ega bo‘lganligini ta‘kidlaydilar.

Vodiy hududida ancha yillar davomida ilmiy ish olib, o‘rganayotgan olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori A.Anorboyev Axsikentda ishlari davomida shunday xuloslarga kelgan jumladan olim eski Axi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida ko‘rsatib o‘tilgan Davan (Farg‘ona) davlatining poytaxti bo‘lganligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Olim qadimgi davrda Farg‘ona davlati va poytaxtining nomi Xitoy manbalarida qanday yuritilganligiga aniqlik kiritdi. Ya‘ni, xitoyliklar Farg‘onani Dayyuan (Davan), poytaxtini esa, Yuan, deb atalganliklarini isbotladi.

Bundan tashqari Xitoy manbalarida poytaxtdan tashqari Farg‘ona davlatida 70 ta shahar bor deya ma‘lumot berilgan. Xususan davlatni podsho ikki yordamchisi bilan boshqaradi, davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilashda Oqsoqollar kengashi (Parlament) asosiy rol o‘ynaydi deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Miloddan avvalgi XII-XI asrlarda Farg‘ona vodiysi hayotida ilk urbanizatsiya jarayonlari boshlandi. Natijada Chust (Bibiona) va Dalvarzin kabi yodgorliklar o‘rnida ilk shahar tipidagi qarorgohlar (protoshahar) shakllandi. Ularning topografiyasi qa‘la, shahar va hayvon qamaydigan joyga ajralib, mudofaa devorlar bilan o‘rab olinadi. Ishlab chiqarishda hunarmandlar guruhlar paydo bo‘la boshladi. Xususan, shaharda hunarmandchilik kop tarmoqli bo‘lgan: metallsozlik, zargarlik, tosh-taroshlik, to‘qimachilik, spool idishlar ishlab chiqarish. Bronzadan pichoqlar, kamon

o'qlari, va zebu ziynat buyumlari tayyorlagan. Dalvarzindan topilgan osoriatiqalar ichida toshdan yasalgan mehnat qurollari ham anchagina. Demak, miloddan avvalgi ikki ming yillikning ikkinchi yarmida xo'jalikda bronza qurollari bilan birga, tosh qurollarini ishlatish davom etgan. To'qimachilik keng ko'lamda rivojlangan bo'lib, asosan, jundan har xil matolar to'qilgan. Umuman olganda Farg'ona vodiysida bronza davrida ilk shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi tufayli dastlabki davlatchilikning ilk ko'rinishlari paydo bo'ladi. Buni – mudofaa devorlarining qurilishi, arkning alohida ajralib turishi va turar joylarning farqlanishida kuzatish mumkin. Demak shu tarzda Farg'ona vodiysi aholisi madaniyatli tarzda shakllangan. Bu haqida ma'lumot beruvchi Chust madaniyati va Eylaton madaniyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Chust madaniyati – mil. Avv. II ming yillikning oxirida va miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida Farg'ona vodiysida Chust madaniyati Qadimgi Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyati va dastlabki qishloqdir. Bu madaniyatga tegishli yodgorliklar Namangan, Andijon, Farg'ona, viloyatlarida 70 dan ortiq bo'lib, ulardan 10 ga yaqinini arxeologlar V.Sprisgevskiy, B.Matboboyev, Yu. Zadneprovskiy tomonidan tadqiq etilgan. Chust yodgorligi tepalikda joylashgan bo'lib, maydoni 210x200 metrni tashkil etadi. Chust madaniyatini yaratgan dehqonlar yerto'la, paxsa va xom g'ishtdan qilingan uylarda yashagan Chust qishloqlari atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Dalvarzintepa yodgorligida mudofaa devorining qoldig'I qazib olingan. Chust madaniyatiga mansub bo'lgan yodgorliklardan tosh va jez o'roqlar, pichoqlar tosh yorg'uchoqlar hamda arpa, bug'doy va ular uchun qazilgan o'rlarning topilishi aholining asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganidan guvohlik beradi. Chust madaniyati yodgorliklariga Dalvarzintepa, qadimgi Mug'tepa yodgorligi, Bibiona manzilgohi, Yoz I, Kuchuk I va shuningdek Munchoqtepa qadimiy manzilgoh o'choqlari.

Eylaton madaniyati –ilk temir davriga oid madaniyat bo'lib ushbu madaniyatning paydo bo'lishi mil. avv. VII-V asrlarga to'g'ri keladi. Eylaton madaniyati Andijon viloyatining Izboskan tumanida Qoradaryoning qadimiy botqoqli etagida joylashgan qadimgi dehqonchilik o'choqlaridan biri hisoblanadi. Olim Yu.A.Zadnerovskiy tomonidan dastlabki "Eylaton madaniyati" tushunchasini kiritildi. Dastlab bu madaniyat haqida olim I.A.Anboyev tomonidan 1926 yilda o'rganilgan. 1930-1934 yillar davomida esa B.A.Latinin tomonidan qazishmalar olib borilgan. Eylaton Chust madaniyati shahrlaridan farqli ravishda parallelogram shaklda bo'lgan. Bu madaniyat manzilgohlarini o'rganish natijasida vodiyning sharqida qabr qo'rg'onlar g'arbi va janubi g'arbida esa qabr qo'rg'onlar bilan birgalikda Chust madaniyatidan farqli tarzda pastak bo'yli kosalar topib o'rganilgan.

Eylaton madaniyatiga oid 50 dan ziyod manzilgohlar o'rganilgan.

Farg‘ona vodiysining o‘rganilish tarixini batafsil to‘xtaladigan bo‘lsak, bu yerda ish olib borgan katta olim va arxeologlar jumladan A. N. Bershtam, Yu. A. Zadnerprovskiy, E.A. Davidovich, G.A.Bro‘kina, V.I.Kozenkova, A.A. Anarbayev, B.Abdulg‘oziyeva,, B,X. Matboboyev, G.P. Ivanov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.Ular bronza davridan to o‘rta asrlar davrigacha bo‘lgan shaharsozlikka oid yodgorliklar bo‘yicha materiallar to‘plagan. Vodiydagi dastlabki ilmiy izlanishlar 1950 yildan olim A.N.Bernshtam tomonidan Shimoliy Farg‘ona hududidan boshlangan. O‘rganilayotgan hududlarda aniqlangan yigirmadan ortiq bronza davri yodgorliklari asosan eradan avvalgi ikki ming yillikning oxiri va bir ming yillikning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu manzilgohlar ichida eng mashhuri va yaxshi o‘rganilgani Chust makonidir. Tadqiqotlar davom ettirilib 1950-1951 yillarda M.E.Voronets tomonidan Chust yaqinidan Buvanamor yodgorligi topildi. Ushbu Chust yodgorligi davri mil.avv. III-II- mingyilliklar bilan belgilandi. 1951-1961- yillar davomida esa arxeolog V.I.Sprishevskiy tomonidan o‘rganildi. 1982-1984 yillarda O‘zSSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi, tarix fanlari doktori, professor Ahmadali Asqarov boshliq O‘zbekiston va Leningrad olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Bugungi kunda ham yuqoridagi olimlar va hamda ularning shogirdlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa yurtimizning yana bir ajoyib go‘shasi bo‘lmish Farg‘ona vodiysi xususida bilimlarimiz o‘sishiga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Anorboyev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning markaziy osiyo tarixida tutgan o‘rni.—T. : “Fan” nashriyoti,2022.
2. Qozoqov.T Aysi-Farg‘ona shaharlarining onasi.—T.:2018.
3. Косимов Й. Кадимги Фаргона сирлари.—Намангон:1992
4. Сагдуллаев А. Кадимги Урта Осиё тарихи.—T.:2004
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.:Davlat milliy nashriyoti,2005.